

ZIYOVIDDIN MANSUR SHE'RIYATIDA QO'LLANGAN ANAFORALARNING LEKSIK - SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mirzag'iyosova Tanzila

Namangan davlat universiteti

Lingvistika – 70230101(o'zbek tili) yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ziyoviddin Mansur she'riyatida anafora usulining qo'llanilishi leksik-semantik va sintaktik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda badiiy takrorlarning asar mazmunini kuchaytirish, matnga musiqiylik bag'ishlash va emotsional ta'sirchanlikni ta'minlashdagi roli ochib berilgan. Shuningdek, anaforalar so'z turkumlari va gap bo'laklari kesimida tasniflangan.*

Kalit so'zlar: *Ziyoviddin Mansur, she'riyat, anafora, badiiy takror, leksik-semantik tahlil.*

Badiiy asarning poetik jozibasi va obrazlilik muayyan lisoniy vositalar tizimi orqali shakllanadi. Badiiy matn tahlilida leksik birliklarning ekspressiv imkoniyatlari hamda ularning estetik funksiyasini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkor tomonidan qo'llanilgan sintaktik-stilistik figuralar va poetik takrorlar asar matniga o'ziga xos, musiqiy ohangdorlik hamda emotsional ta'sirchanlik baxsh etadi.

Takrorlarning estetik xususiyatlari, ayniqsa, she'riy nutqda shakliy va mazmuniy yaxlitlikni ta'minlovchi xarakterga ega bo'lib, lirik asarning jozibadorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bunday badiiy jozibaga fonetik, leksik va sintaktik sathdagi birliklarning izchil takrori orqali erishiladi. Bunday badiiy uslubiy joziba fonetik, leksik va sintaktik sathdagi birliklarning izchil takrori orqali erishiladi. She'riyatda keng qo'llaniladigan anafora hodisasi aynan mana shunday uslubiy takrorlar sirasiga kiradi.

Ilmiy adabiyotlarda anafora (grekcha onaphora – yuqoriga ko'tarish) – “she'riy misralarning boshida shaklan bir xil ohangdosh so'z va iboralarning takrorlanib kelishidan iborat uslubiy usul”, deb ta'riflanadi. Anafora she'riy matnda ohangdorlik, joziba, emotsionallik kabi xususiyatlarni namoyon qiladi. Shoir Ziyoviddin Mansur she'riyatida ham anaforaning turli shakllari qo'llangan bo'lib, ijodkor ulardan samarali foydalangan.

Ayol qanday bo'lmog'i kerak?

Ayol qanday bo'lmog'i kerak !

Yori bilan ikki misra she'r –

Bitta bandday bo'lmog'i kerak!

Ushbu to'rtlikda shoir lirik qahramonning falsafiy mushohadalarini leksik anafora (so'z takrori) orqali mahorat bilan ifodalagan. Misra boshida kelgan “ayol” leksemasining takrorlanishi nafaqat nutqning emotsionalligini oshiradi, balki

mazmuniy urg'uni kuchaytirishga xizmat qiluvchi asosiy stilistik vosita vazifasini o'taydi.

Parchaning birinchi misrasida so'roq ohangi ustuvor bo'lsa, ikkinchi misradagi anafolik takror intonatsiyani kuchaytirib, savolni qat'iy tasdiq (hukm) darajasiga ko'taradi. Muallif ushbu usul orqali subyektiv mushohadani obyektiv haqiqat sifatida muhrlaydi.

Misralardagi "ayol" tushunchasi semantik jihatdan kengayib, o'zida sadoqat, ma'naviy uyg'unlik va nafosat kabi estetik kategoriyalarni mujassam etadi. Ayniqsa, yor va ayol munosabatini "ikki misra" va "bitta band" o'rtasidagi tarkibiy birlikka o'xshatish (tashbeh) orqali oilaviy yaxlitlikning poetik modeli yaratilgan. Xulosa qilib aytganda, qo'llanilgan anafora va semantik parallelizm ayol obrazining ma'naviy mukammalligini fundamental tarzda asoslashga xizmat qilgan.

Soyga tushdim, ko'kda chiqdi oy,

Nur yog'ildi bulutlarga.

Nurga to'ldi dara, to'ldi soy,

Nur yog'ildi qorong'i jarga.

Ushbu parchada shoir so'z takrori usulidan foydalanib, she'rning semantik yaxlitligini va poetik fikr ko'lamini kengaytirgan. Matnda "nur" leksemasining misralar boshida izchil takrorlanishi leksik anafora badiiy san'atini yuzaga keltirgan. Ushbu stilistik usul matnga o'ziga xos ritmik ohang va emotsional ta'sirchanlik bag'ishlash bilan birga, "nur" obrazini markaziy poetik timsol (dominanta) darajasiga ko'targan. Har bir misrada yorug'likning turli yo'nalishlar (bulut, dara, soy, jar) bo'ylab tarqalishi dinamik tasvirlanib, nurning qamrovdorlik qudrati badiiy ifodalangan.

Lingvistik nuqtayi nazardan, takrorlar nafaqat ekspressivlikni ta'minlovchi uslubiy vosita, balki matn qurilishida grammatik va semantik bog'liqlikni yuzaga keltiruvchi muhim lisoniy hodisadir. Shoir she'riyatidagi anaforalarni morfologik xususiyatlariga ko'ra quyidagi turkumlarga klassifikatsiya qilish mumkin:

- ot takrori;
- fe'l takrori;
- olmosh takrori;
- yordamchi va modal so'zlar asosidagi takrorlar.

Ot takrori:

Xalqning qismatidir shohning qismati

Xalqning izzatidir shohning izzati

Xaq uni asrasin omadsizlikdan,

Xalqning omadidir shohning omadi.

Yoki:

O'y suraman,

O'ylar suraman-

O'yimga o'y to'laveradi,

O'ylarimda o'zimday o'ychan

Onam paydo bo'laveradi.

Fe'l takrori:

Tingla, olam,

Tingla, ey bashar!

Qalbimda bir muhabbat yashar

Yoki:

Qo'shib daryo, soylar shovqinin,

Qo'shib to'lin Oyning yolqinin.

Olmosh takrori:

Sizdan yupanchliroq yupanch topolmay,

Sizdan suyanchlirliq suyanch topolmay,

Sizdan quvonchliroq quvonch topolmay

Yarimta bu ko'nglim to'lmasa netay?!

Yordamchi so'z turkumidan yuklama takrori:

Faqat sen o'zgarmas ekansan, sevgi

Faqat sen hamnafas ekansan, sevgi

Yoki bog'lovchi takrori:

Goh qolib iz , gohida beiz,

Goh belgili, goho belgisiz,

Goh quvonib , goh qilib afsus,

Goh besh ketib, goho ketib sust.

Yoki:

Siz - qo'shiq , siz-g'azal, siz kuy-siz navo,

Siz jannat bag'ridan esguvchi sabo.

Takrorlar so'z turkumlari jihatidan turlicha ko'rinishda namoyon bo'lib, har biri alohida uslubiy va semantik vazifa bajaradi. Ot takrori semantik markazni hosil qiladi, fe'l takrori harakatni jonlantiradi, sifat va ravish takrorlari esa tasviriylik hamda emotsionallikni kuchaytiradi. Shu bois takrorlar badiiy matnning lingvopoetik yaxlitligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri hisoblanad

Shuningdek, takrorlarning qo'llanilish o'rniga ko'ra gorizontaal va vertikal turlari ham mavjud. Ziyoviddin Mansur she'rlarida buni yuqoridagi misralarda qo'llangan goh bog'lovchisini ham vertikal, ham gorizontaal qo'llanishini ko'rishimiz mumkin. Bunday takrorlash orqali ijodkor o'z fikriga ta'kidni yuklagan.

Shoir ijodida anafora sifatida modal so'zlarning ham qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. She'riyatda modal so'zlardan takror sifatida foydalanish kam uchraydi, Ziyoviddin Mansurning bu kabi birliklarni o'rinli qo'llay olgani esa shoirning yuksak badiiy mahoratini va har qanday so'zlardan foydalana olish qobiliyatini ko'rsatib beradi.

Garchand qo'limizga olmadik qurol

Garchand o'q yog'madi bizning boshlardan

Bejiz bu el pok, pok iymon yaralmagan, Xudo shohid,

Bejiz bu joy qutlug' makon yaralmagan, Xudo shohid,

Bejiz unda baxt ham mezbon yaralmagan, Xudo shohid,
Yuz hayratdan to'qson to'qqiz hayrat o'zbeklarga tekkan.

Takrorlar gap bo'laklari jihatidan ham turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bunday takrorlar matnning sintaktik qurilishini mustahkamlaydi, fikrning ta'sirchanligi va poetik ohangdorligini oshiradi. Gapning qaysi bo'lagi takrorlanishiga qarab uning uslubiy vazifasi ham o'zgaradi. Shoir she'rlarini stilistik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, ega, aniqlovchi, hol, to'ldiruvchi, kesimlarning takrorlanib kelishini ham uchratishimiz mumkin.

Ega takrori Gapning bosh bo'lagi bo'lgan ega takrorlanganda asosiy obraz yoki shaxsga kuchli urg'u beriladi.

Misol:

Ular noma'lum emas, yo'q-yo'q!

Ular el-u yurt sha'ni tug'ro, tug'

Ular mangu yonar laxta cho'g'

Urushdan qaytmagan o'g'lonlar.

Aniqlovchi takrori belgini ifodalovchi aniqlovchilarning takrori tasviriylikni kuchaytiradi, obrazni yorqinlashtiradi, estetik ohang hosil qiladi.

Bu na taqdir hukmi,

Bu na bir sinov,

Bu na bir sinoat edi, do'stlarim

Prometey Quyoshdan olganday olov,

Bu - asl matonat edi, do'stlarim.

Holning takrorlanishi harakatning o'rni, payti, daraja-miqdori yoki tarziga urg'u beradi. Birinchi keltirilgan misolda daraja-miqdor holi takrorlanib kelgan. Bu hol takrori orqali shoir ma'naviy yemirilish chegarasiga oz qolganini ta'sirchan shaklda ko'rsatadi. Sal leksemasi oz miqdorni bildirsa-da, she'rda kuchli ruhiy keskinlikni ifodalaydi.

Sal qolgandi kofir bo'lib ketishimizga,

Sal qolgandi o'zga dinga o'tishimizga .

Quyida keltirilgan misralarda esa "chor taraf" birikmasi takrorlanib , o'rin holi yuzaga kelgan. Birinchi misrada "chor tarafdin" - chiqish kelishidagi o'rin holi birlashish , ikkinchi misrada "chor tarafga" - jo'nalish kelishidagi o'rin holi ajralish va tarqoqlik ma'nosini beradi.

O'zimizni o'zimiz yedik,

Ko'p loylandik,

Qoldik ham tinib.

Chor tarafdin jamlangan edik,

Chor tarafga ketdik bo'linib.

Kesim takrori harakat yoki holatni ifodalovchi kesimning takrori dinamizm va davomiylikni anglatadi, harakatni kuchaytiradi, ritmik ohang yaratadi, hissiy holatni chuqurlashtiradi.

Farqi yo'qdur siz uchun otni ham ,
Farqi yo'qdur nasl- u zotni ham.
O'tar ekan shoh ham, gado ham.
O'tar ekan omi ham, mullo ham.

Ziyoviddin Mansur she'rlarini tahlil etish davomida ko'rish mumkinki, anaforalar faqat so'z ko'rinishida emas, so'z birikmasi va hatto gap holida ham namoyon bo'lishi mumkin. Va bundan xulosa qilgan holda anaforalarni qanday birliklar bilan ifodalanishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lib olamiz:

- 1)so'z shaklidagi anaforalar;
- 2)so'z birikmasi shaklidagi anaforalar;
- 3)gap shaklidagi anaforalar.

Va quyida misollar bilan ularni tahlil etamiz:

1.So'z shaklidagi anaforalar.

Jahonning dovrudor allomalari

Sharqdandir,

Sharqdandir,

Sharqdan aksari.

O'ylatar ,

O'ylatar,

O'ylagan sari

Murakkab davrning mashaqqatlari

2. Birikma shaklidagi anaforalar:

Qaysi zot butun bir davlatga ko'zgu,

Qaysi zot butun bir millat Quyoshi?!

Na yo'l yoningga yetmoqqa ?

Na yo'l sabr ila kutmoqqa

Na yo'l yoding unutmogga

Ilojim yo'q , ilojim yo'q

Badiiy takrorlar asar mazmunini aniqlashtirish, ma'no salmog'ini kuchaytirish va fikrni alohida ta'kidlashga xizmat qiladi. Tahlil qilinayotgan misralardagi anaforik takrorlar chuqur ta'kid va mantiqiy urg'u orqali she'rning mazmun-mohiyatini kitobxonga yaqqol namoyon etadi. Bunday takrorlanuvchi birliklar nafaqat she'riyatning estetik ta'sirchanlikni oshiradi, balki matnga o'ziga xos ohangdorlik (ritm) va musiqiylik bag'ishlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, anafora ijodkor g'oyasini o'quvchi ongiga aniq singdirish bilan birga, lirik asarning ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim vositadir. Xulosa qilib aytganda, anafora usuli shunchaki shakliy hodisa emas, balki she'riy nutqning ichki qatlamlariga, uning tagma'nolari va emotsional bo'yog'iga joziba baxsh etuvchi, shoir niyatining hayotiylikni ta'minlovchi badiiy-uslubiy vositadir.